

KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

“STANDART TESTING SIEVE TS-300” LOBORATORIYA USKUNASIDA O‘TKAZILGAN TAJRIBA TAHLILI

I.Z. Abbazov

*Jizzax Politehnika instituti “Sanoat texnologiyalari” fakulteti dekani, t.f.d,
ilhom.abbazov.86@mail.ru,*

B.T. Abbazov

*Jizzax Politehnika instituti “Tabiiy tolalar va matoga ishlov berish texnologiyasi”
kafedrasi assistenti, abbazovbaho@gmail.com,*

Z.R. Tursunov

*Jizzax Politehnika instituti “Tabiiy tolalar va matoga ishlov berish texnologiyasi”
kafedrasi doktoranti, tursunovzohidjon772@gmail.com.*

Annotatsiya: Hozirgi kunda paxtachilik sohasida ko‘plab yangiliklar amalga oshirilmoqda, chunki sohadagi o‘zgarishlarning mohiyati tabiiy mahsulotlarning sifatini yaxshilashga qaratilgan. Bu esa birinchi navbatda xomashyo sifati bilan bog‘liqdir. Chigit xomashyolarining sifati uning tolasidan ajratib olish va ajratib olinganidan keyingi texnologik jarayonlarga bog‘liq. Asosan uning sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar jinlash uskunasi paydo bo‘ladi. Ushbu omillarni bartaraf etish uchun birinchi navbatda ularning tarkibini o‘rganish lozim. Buning uchun “Standart testing sieve TS-300” lobaratoriya saralagichidan foydalaniladi.

Аннотация: В настоящее время в сфере хлопкопроизводства внедряется множество инноваций, поскольку суть изменений в сфере направлена на повышение качества натуральной продукции. В первую очередь это связано с качеством сырья. Качество семенного сырья зависит от технологических процессов извлечения его волокна и последующей экстракции. Факторы, влияющие на его качество, в основном проявляются в хлопкоочистительном оборудовании. Чтобы устранить эти факторы, необходимо в первую очередь изучить их состав. Для этого используется лабораторное сито «Сито контрольное ТС-300».

Abstract: Currently, many innovations are being implemented in the field of cotton production, because the essence of changes in the field is aimed at improving the quality of natural products. This is primarily related to the quality of raw materials. The quality of seed raw materials depends on the technological processes of its fiber extraction and subsequent extraction. The factors affecting its quality mainly appear in the ginning equipment. To eliminate these factors, it is necessary to study their composition first. For this, the "Standard testing sieve TS-300" laboratory sieve is used.

Kalit so‘zlar: Paxtachilik sohasi, paxta tozalash korxonalari, paxta, tola, chigit, ifloslik, “Standart testing sieve TS-300”, elaklar, saralash, sanoat nav, selektsion nav.


Ключевые слова: Хлопковая отрасль, хлопкоочистительные предприятия, хлопок, волокно, семена, примеси, «Сито контрольное стандартное ТС-300», сита, сортировка, промышленный сорт, селективный сорт.

Key words: Cotton sector, cotton ginning enterprises, cotton, fiber, seed, impurities, "Standard testing sieve TS-300", sieves, sorting, industrial grade, selective grade.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini turli jabhalarida oshirish uchun ishlab chiqarish korxonalarida kuchli va mustahkam texnik baza yaratish jarayonida zamonaviy ilmiy-texnik rivojlantirishning asosiy yo‘nalishi hisoblangan, yuqori samaradorlikka ega, energiya tejovchi va ekologik toza texnologiyalarni yaratish, ishlab chiqarish va rivojlantirish muhim masala sifatida qaralmoqda.


Ishlab chiqarish korxonalarida texnika va texnologiyalarni rivojlanishi murakkab, takomillashgan mashina va jihozlarni yaratish, ularning tavsifnomasiga qo‘yilgan talablarni doimiy oshirib borish va ulardagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, turli xildagi texnik qurilmalarni yagona kompleksga birlashtirish orqali mahsulotlarning sifatini oshirish dolzarbligicha qolmoqda.

Bugungi kunda paxta tozalash korxonalaridagi texnologik mashinalar samarali ishlab kelmoqda. Bunga birgina paxtadan olinadigan tolali mahsulotlarning sifati yaxshilanayotganidan ko‘rishimiz mumkin. Ammo paxtaning asosiy xomashyolaridan biri bo‘lgan chigit xomashyosini qayta ishlashda muammolar borligi va ushbu muommoning mahsulot sifatiga kuchli ta’sir qilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri chigit tarkibidagi iflosliklarni ajratish va saralash uskunalarida muommolar mavjudligidadir. Ushbu muammolar chigit xomashyolaridan olinadigan urug‘lik chigit va texnik chigit hamda momiq xomashyolarining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu muammolarning oldini olish maqsadida samarali chigit saralash qurilmasi yaratish ustida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Shu jumladan, respublikamizda paxta xomashyosini dastlabki ishlash texnologik jarayonidagi chigitlarni saralash va tozalash nazariy-fundamental, amaliy masalalari hamda metodologik asoslarini yaratishda X.Isaxanov, M.Sultonov, A.Obidov, A.Tursunov, S.Rejabboev, X.Abdugaffarov va boshqa ko‘plab olimlar tadqiqotlar olib borishgan. Bulardan X.Isaxanov tavsiya etgan chigit saralash qurilmasida (1-rasm) baraban ichida shneksimon shnek parragi yordamida chigitlar aralashtirilib, saralash jarayoni bajariladi. Baraban ostiga joylashgan tebranuvchi kareta yordamida chigit fraksiyalarga ajralib saralanadi. Ushbu qurilma o‘zining murakkab konstruksiyasi sababli ishlab chiqarishda keng qo‘llanilmadi.



1-rasm. Chigit saralagich

Bugungi kunda dunyoning 84 ta mamlakatida 200 millionga yaqin aholi 32-33 million gektar yerga chigit ekib paxta yetishtirish va qayta ishlash bilan shug‘ullanadi. O‘zbekiston paxta yetishtirish bo‘yicha dunyoda Xitoy, Hindiston, AQSh, Braziliya, Avstraliya, Turkiya va Pokistondan keyin 8-o‘rinda turadi (2-rasm).



2-rasm. Paxta yetishtirish bo‘yicha dunyodagi yetakchi davlatlar.

G‘o‘za texnik ekinlar ichida eng qimmatlisi hisoblanadi. U asosan tolasi uchun o‘stiriladi. Lekin paxtaning chigiti ham nihoyatda qimmatli mahsulot hisoblanadi. Paxta chigiti dastlabki ishlov berishda tolasidan ajratilgandan keyin

Tajriba jarayonini olib borish uchun birinchi navbatda paxta tozalash korxonasidan keltirilgan chigitdan lobaratoriya elagiga mos ravishda namuna tanlab olindi (2-rasm). Buning uchun chigit lobaratoriya stolida aralashtirilib, so‘ngra standart talabiga mos ravishda undan elaklar uchun maxsus 200 gr miqdorda namuna o‘lchab olindi. Olingan namunani tarkibidagi chigitlarning o‘lchamlarini aniqlash uchun esa elaklar ichidan 5,5 mm, 6mm, 7 mm, 8 mm, 9 mm, 9,5 mm va 10 mm.lik 7 dona elak tanlab olindi. Tanlangan elaklarda tajriba o‘tkazish jarayoni elaklarning yirik o‘lchamdagisidan boshlanadi, ya’ni dastlab 10 mm.lik elakda amalga oshiriladi. Bu jarayon 5,5 mm.lik elakgacha davom etadi.



4-rasm. Jizzax viloyatida joylashgan "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sifatini baholash" davlat muassasasi Jizzax filialining lobaratoriya xonasida tajriba jarayoni.

Namuna xar bir elakdan o‘tkazilgandan so‘ng elakda qolgan chigitlarning massasi o‘lchanib, elak o‘lchami yozilgan politelin paketga solinadi. Tajriba so‘ngida 5,5 mm dan kichik bo‘lgan iflosliklar ham tarozida o‘lchanib, alohida polietilin paketiga solib qo‘yildi. Har bir elakda ushlab qolingani chigit miqdori va 5,5 mm dan kichik bo‘lgan chigit iflosliklari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

T/r	Chigit turlari				Elaklar teshiklarining o‘lchamlari, mm							
	Seleksion navi	Sanoat navi	Sinfi	Namuna massasi, gr	10	9,5	9	8	7	6	5,5	5,5 dan kichik
1	S-8290	2	2	200	5,1 gr	4,8 gr	44,8 gr	31,2 gr	71,4 gr	38,7 gr	2,3 gr	1,7 gr

Umumiy tajriba natijalaridan xulosa qilinganda:

1. Paxta tozalash korxonalarida chigit xomashyolarni saralash va tozalash ustida olib boriladigan tadqiqotlarda **“Standart Testing Sieve TS-300”** loybaratoriya uskunasiidan foydalanish mumkin.
2. Ushbu uskunaning ishlash tartibi o‘rganib chiqildi va chigit xomashyolarini saralashda foydalanildi.
3. Tajriba natijalariga ko‘ra S-8290 2-navli paxtaning 200 gr chigit xomashyosida 9.5 mmdan katta bo‘lgan tolasi to‘liq ajratilmagan chigit aralashmalari 9.9 gr ni tashkil qilishi o‘rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- [1] Abbazov I., Usmankulov A., Sharopov B. Investigation of local resistance and air velocity in narrowing pipes for the transport of fibrous materials //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2023. – T. 1142. – №. 1. – С. 012093.
- [2] Аббазов И. З. и др. ВЛИЯНИЕ МЕСТНОГО СОПРОТИВЛЕНИЯ НА ИЗМЕНЕНИЯ ДАВЛЕНИЯ И СКОРОСТИ В РАСШИРЕННОМ ПНЕВМОТРАНСПОРТЕ //Universum: технические науки. – 2022. – №. 3-3 (96). – С. 37-46.
- [3] Турсунов З. Р. У. и др. АНАЛИЗ СУЩЕСТВУЮЩИХ ОЧИСТИТЕЛЕЙ ХЛОПКОВЫХ СЕМЯН НА ХЛОПКООЧИСТИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ //Universum: технические науки. – 2023. – №. 10-4 (115). – С. 11-17.
- [4] Abbazov I. Z. et al. Pressure loss during expansion of local resistance pipes in a mixture of air and fibrous waste //Textile Journal of Uzbekistan. – 2021. – T. 1. – С. 4-11.
- [5] Аббазов И.З. и др.технологик жараёнлардан чиқаётган чанг заррачаларининг фракцион таркиби //science and education. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 129-135.
- [6] Аббазов, Илхом Запирович, Бобир Набижон Ўғли Шаропов, and Зоҳид Равшан Ўғли Турсунов. "ВЛИЯНИЕ МЕСТНОГО СОПРОТИВЛЕНИЯ НА ИЗМЕНЕНИЯ ДАВЛЕНИЯ И СКОРОСТИ В РАСШИРЕННОМ ПНЕВМОТРАНСПОРТЕ." Universum: технические науки 3-3 (96) (2022): 37-46.